



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№2(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 156 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari	22
<i>Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna</i>	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida	26
<i>Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna</i>	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil	29
<i>Baxriyeva Nargiza Axmadovna</i>	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish	33
<i>Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish	37
<i>Nusharov Bobir Bolbekovich</i>	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя	41
<i>Олимова Азиза Кахрамоновна</i>	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari	47
<i>Tursunboyeva Kamola Iloxmon qizi</i>	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari	50
<i>Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich</i>	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari	54
<i>Fayziyeva Nozima Oybek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi	59
<i>Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli	64
<i>Botirova Lobar Kamolovna</i>	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	69
<i>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqitirishda integrativ usullardan foydalanish	73
<i>Ergasheva Nigora Erkinovna</i>	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects	76
<i>Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	81
<i>Rustemov Abseit Trijan o'g'li</i>	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni	85
<i>Baxramova O'ramol Uralovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati	88
<i>Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna</i>	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari	92
<i>Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich</i>	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli	96
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari	100
<i>Jummayeva Sayyora Shokir qizi</i>	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies	104
<i>Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi</i>	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili	109
<i>Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna</i>	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	112
<i>Qodirova Mavluda Maxodir qizi</i>	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	116
<i>Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	123
<i>Raimqulova Sojida Abdusaid qizi</i>	
Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
<i>Shermatova Yakut Sabirovna</i>	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling	129
<i>Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish	132
<i>Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna</i>	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
<i>Turdiyeva Zilola Jalilovna</i>	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni	138
<i>Xalikova Umida Mirovna</i>	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni	143
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi</i>	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
<i>Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi</i>	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
<i>Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна</i>	



BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

UDK 378.147:37.091.3:7

Nusharov Bobir Bolbekovich

Guliston davlat universiteti,

"Amaliy san'at va dizayn" kafedrası v.b. dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida individual, tabaqalashtirilgan hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim yondashuvlarining rangtasvir mashg'ulotlari samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiya, tasviriy san'at ta'limi, pedagogik texnologiya, rangtasvir, individual yondashuv, tabaqalashtirilgan ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Abstract: This article analyzes the role and significance of modern pedagogical technologies in the development of professional competencies of future visual arts teachers. The study reveals the potential of individual, differentiated, and information and communication technology-based educational approaches in enhancing the effectiveness of painting instruction.

Key words: professional competence, visual arts education, pedagogical technology, painting instruction, individual approach, differentiated learning, information and communication technologies.

Аннотация: В данной статье анализируются роль и значение современных педагогических технологий в процессе формирования профессиональных компетенций будущих учителей изобразительного искусства. В ходе исследования раскрываются возможности индивидуального, дифференцированного, а также основанного на информационно-коммуникационных технологиях образовательного подхода в повышении эффективности занятий по живописи.

Ключевые слова: профессиональная компетенция, художественное образование, педагогическая технология, живопись, индивидуальный подход, дифференцированное обучение, информационно-коммуникационные технологии.

KIRISH

Zamonaviy pedagogika ilmda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish masalasi ta'lim sifatini oshirish va pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etishning asosiy omillaridan biri sifatida keng e'tirof etilmoqda. Kompetensiyalarni rivojlantirish, ularni tizimli va kompleks shakllantirish hamda o'quv jarayonida barqaror natijalarga erishish masalalari nafaqat nazariy, balki amaliy pedagogik tadqiqotlarning ham markaziy mavzularidan biri hisoblanadi. Jahonning ilg'or mamlakatlarida pedagogik kompetensiyaning mazmuniy tarkibi, uning shakllanish mexanizmlari, shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimida pedagog shaxsining kasbiy o'sishini ta'minlash bilan bog'liq konseptual masalalar bo'yicha keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar, odatda, pedagogik faoliyatni tizimli yondashuv asosida tashkil etish, zamonaviy metod va texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, talabalarda mustahkam kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan.

Xususan, Yevropa oliy ta'lim makonida qabul qilingan Bolonya deklaratsiyasi oliy ta'lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida modernizatsiya qilishni, shuningdek, talabalarda barqaror kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish hamda ularni doimiy o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchan mutaxassislar sifatida tayyorlashni ko'zda tutadi ^[1:12]. Ushbu yondashuv pedagogik faoliyatni nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar, kreativ fikrlash va ijtimoiy mas'uliyat elementlarini o'z ichiga olgan kompleks tizim sifatida rivojlantirish imkonini beradi.

Mazkur jarayon doirasida ta'limning faol va interfaol shakllarini variativ asosda tashkil etish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kreativligini, mustaqil ijodiy faoliyatini hamda metodik innovatsiyalarni qo'llash

qobiliyatini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim va san'at sohasini rivojlantirish, xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun malakali tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ta'lim jarayonida xalqaro standartlarga mos pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy faoliyatga yo'naltirish, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini tizimli ravishda mustahkamlash va innovatsion pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish bugungi kunda ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda ^[2:46¹¹]. Shu nuqtai nazardan, pedagogik texnologiyalar asosida bo'lajak san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, balki kelgusida sifatli ta'lim va innovatsion pedagogik faoliyatni ta'minlash uchun muhim shart hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi ta'lim sifati va pedagogik jarayon samaradorligini oshirish bilan uzviy bog'liq holda talqin etilmoqda. Jumaboev Nabi Pardaboevichning 2025-yilda e'lon qilingan ilmiy ishlarida tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy rivojida ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish professional o'sishning asosiy omili sifatida ko'rsatilib, pedagogik texnologiyalar bu jarayonda muhim vosita ekanligi ilmiy asoslangan.

Tasviriy san'at ta'limida kompetensiyaviy yondashuvning amaliy jihatlari Yucupova Shoxista Alimjanovna va Nabi Jumaboev tomonidan 2021-yilda chop etilgan tadqiqotda keng yoritilgan. Mualliflar tasviriy san'at darslari orqali o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish pedagogik texnologiyalar bilan uzviy bog'liq ekanini ta'kidlab, dars jarayonida faol va interfaol metodlardan foydalanish samaradorligini asoslab bergan.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish masalasi N. B. Bolbekovichning 2024-yildagi ilmiy ishlarida chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotlarda kasbiy kompetensiyaning tuzilmasi texnologiya, metod va mazmun integratsiyasi asosida yoritilib, pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'lajak o'qituvchilarning nazariy bilimlari bilan amaliy ko'nikmalarini uyg'un rivojlantirishga xizmat qilishi ko'rsatib berilgan.

Pedagogik texnologiyalarning tasviriy san'at mashg'ulotlari samaradorligini oshirishdagi ahamiyati Pardaboevich Jumaboev Nabi tomonidan 2025-yilda o'tkazilgan tadqiqotlarda ham asoslab berilgan. Muallif zamonaviy pedagogik talablar asosida rangtasvir mashg'ulotlarini tashkil etish orqali talabalarning ijodiy faolligi va kasbiy tayyorgarligi sezilarli darajada oshishini ilmiy dalillar bilan isbotlaydi.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va vizual ta'lim vositalarining ahamiyati Babadjanov, Khudayberdievich hamda Ibadullaeva va Jumaboevlarning tadqiqotlarida yoritilgan. Ushbu ilmiy ishlarda raqamli texnologiyalar, fiziognomika va milliy san'at an'alarini integratsiyalash orqali tasviriy san'at ta'limida talabalar kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali mexanizmlari ko'rsatib berilgan. Bu esa pedagogik texnologiyalar asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayonining ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasi nazariy va amaliy jihatdan keng ko'lamda o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-taqqoslash, retrospektiv tahlil, pedagogik kuzatuv, tajriba hamda umumlashtirish usullari tashkil etdi. Ushbu metodlar majmui bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va ijodiy kompetensiyalarini shakllantirishning samarali strategiyalarini aniqlash, mavjud yondashuvlarning afzallik va kamchiliklarini tahlil qilish imkonini berdi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi tadqiqotda ta'lim jarayonini oldindan loyihalash, tizimli tashkil etish va maqsadga yo'naltirilgan boshqaruvni ta'minlovchi murakkab tizim sifatida talqin etildi. Ushbu yondashuv pedagogik jarayonda inson resurslari, metodik vositalar va texnik infratuzilmaning o'zaro uyg'unligini ta'minlash orqali bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan ^[3:12]. Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalar talabaning individual xususiyatlari, ijodiy va estetik qobiliyatlarini hisobga olgan holda o'qituvchiga o'quv jarayonini yanada moslashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida tasviriy san'at ta'limiga xos bo'lgan individual, tabaqalashtirilgan, muammoli, modulli, integrativ, axborot-kommunikatsiya va hamkorlikka asoslangan ta'lim texnologiyalarining samaradorligi tahlil qilindi ^[4:7]. Shu bilan birga, rangtasvir mashg'ulotlari kontekstida talabalarning psixologik, estetik va ijodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda individual va tabaqalashtirilgan yondashuvni qo'llash samaradorligi pedagogik kuzatuvlar, intervyular hamda amaliy mashg'ulotlar natijalari asosida aniqlandi. Ushbu yondashuv talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.



Shuningdek, tadqiqot jarayonida pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish samaradorligini, ularning o'quv jarayonidagi interaktivligi hamda talabalar bilan o'zaro ta'sirini o'rganish maqsadida maxsus pedagogik kuzatuvlar va baholash vositalari qo'llanildi. Mazkur metodologik yondashuv bo'lajak san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini tizimli ravishda o'rganish va olingan natijalarni ilmiy asosda umumlashtirish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, dastgohli rangtasvir mashg'ulotlarida individual va tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi ^[13]. Talabalarni ularning o'zlashtirish darajalariga ko'ra shartli guruhlariga ajratish orqali mashg'ulotlarni moslashtirish har bir talabaning ijodiy faolligi va kasbiy qiziqishlarini oshirish imkonini berdi ^[14]. Shu jarayonda talabalarining mustaqil ishlash ko'nikmalari, muammolarni hal qilish qobiliyati va ijodiy yondashuv darajasi sezilarli darajada oshgani kuzatildi ^[12]. Ushbu yondashuv pedagogik jarayonda individual yondashuvning samaradorligini amalda tasdiqladi va bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini mustahkamladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan mashg'ulotlar rangtasvir, rangshunoslik, plastik anatomiya va amaliy bezak san'ati fanlarini o'qitishda o'quv materiallarini vizuallashtirish, mustaqil ta'lim jarayonini samarali tashkil etish hamda nazorat mexanizmlarini avtomatlashtirish imkonini berdi ^[6:128]. Elektron o'quv qo'llanmalar, virtual modullar, interaktiv ta'lim dasturlari va test tizimlarining joriy etilishi talabalarining axborot olish, tahlil qilish va amaliy qo'llash ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdi ^[9:750]. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalar talabalarining o'z-o'zini baholash va o'zini rivojlantirish jarayonini ham rag'batlantirdi, natijada ularning mustaqil ijodiy faoliyati kengaydi.

Tadqiqot davomida kasbiy kompetentlikning tayanch, fanlararo va predmetga oid darajalari aniqlanib, ularning bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini ta'minlashdagi roli asoslab berildi ^[10:5]. Xususan, tayanch kompetensiyalar pedagogik asoslar va umumiy bilimlarni egallashni, fanlararo kompetensiyalar boshqa san'at yo'nalishlari bilan integratsiyani amalga oshirishni, predmetga oid kompetensiyalar esa rangtasvir texnikasi, kompozitsiya va bezak san'ati bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni qamrab oladi. Ushbu jarayon orqali talabalar nafaqat malakali mutaxassis, balki ijodiy faol shaxs sifatida tayyorlanmoqda ^[7]. Shu tarzda, tadqiqot natijalari pedagogik texnologiyalarni tizimli joriy etish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va ijodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar pedagogik texnologiyalarni tasviriy san'at ta'limiga samarali integratsiyalash jarayoni bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini yaqqol ko'rsatadi ^[8]. Tadqiqot shuni isbotladiki, individual va tabaqalashtirilgan yondashuvlar talabalarining ijodiy imkoniyatlarini to'liq namoyon etishiga, ularning o'z-o'zini ifoda qilish va o'ziga xos san'atni uslubini shakllantirishga qulay sharoit yaratadi ^[15]. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, o'quv materiallarini vizuallashtirish, mustaqil o'rganish va nazorat jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning bilim va malakalarini zamonaviy standartlar asosida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining o'z ustida ishlash, o'zini o'zi tahlil qilish va baholash kompetensiyalarini doimiy ravishda rivojlantirish zarurligini tasdiqlaydi. Shu jarayonda loyihaviy yondashuv asosida tashkil etilgan kasbiy o'sish modeli muhim rol o'ynaydi, chunki u pedagogning mustaqil faoliyatga tayyorgarligini oshiradi, ijodiy va metodik qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi hamda kasbiy barqarorlikni ta'minlaydi ^[11:149]. Shuningdek, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, pedagogik texnologiyalarni tizimli qo'llash orqali bo'lajak o'qituvchilar nafaqat amaliy ko'nikmalarni, balki pedagogik tafakkur va ilmiy tahlil qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Bu esa ularni zamonaviy ta'lim jarayonida o'zgaruvchan talablar va innovatsion yondashuvlarga moslashuvchan, mustaqil va ijodiy faol mutaxassis sifatida tayyorlashga xizmat qiladi. Shu tariqa, olingan natijalar pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish nafaqat kasbiy tayyorgarlikni, balki o'qituvchi shaxsining ijodiy va metodik rivojlanishini ta'minlovchi asosiy vosita ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida pedagogik texnologiyalar, xususan, individual, tabaqalashtirilgan hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan yondashuvlar muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, talabalarining ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda ularning kasbiy va metodik salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.



Bundan tashqari, pedagogik texnologiyalarni tizimli va ilmiy asosda tanlash hamda amaliyotga joriy etish bo'lajak o'qituvchilarning professional tayyorgarligini mustahkamlash, ularni zamonaviy ta'lim va ijodiy faoliyat sohasida samarali ishlashga tayyorlash imkonini beradi. Shu bilan birga, talabalarning mustaqil fikrlash, o'z-o'zini baholash va ijodiy qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, tasviriy san'at ta'limida pedagogik texnologiyalarni ilmiy asosda tanlash va ularni amaliyotga tatbiq etish bo'lajak o'qituvchilarning zamonaviy ta'lim muhitida raqobatbardosh, ijodiy va mustaqil mutaxassis sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Ushbu yondashuv nafaqat talabalarning kasbiy rivojlanishiga, balki butun ta'lim jarayonining sifatini oshirishga ham sezilarli hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jumaboev Nabi Pardaboevich. (2025). Development of Creative Competencies as the Foundation of Professional Growth for Visual Arts Teachers. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17306753>
2. Юсупова, Шохиста Алимжановна, ва Наби Пардабоевич Жумабоев. "Тасвирий санъат дарслари орқали ўқувчиларни ижодкорликка ўргатиш". Science and Education, 2(2), 2021, 460–464.
3. Bolbekovich, N. B. (2024). Structure of Professional Competence Development of Future Fine Art Teachers: Integration of Technology, Method and Competence. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 5(3), 12. <https://doi.org/10.47134/emergent.v3i1.42>
4. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. (2025). Organizing Visual Arts Lessons and Enhancing Their Effectiveness Based on Modern Pedagogical Requirements. Conference of Modern Science & Pedagogy, 1(5).
5. Bolbekovich, N. B. (2024). Structure of Professional Competence Development of Future Fine Art Teachers: Integration of Technology, Method and Competence. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 5(3), 12. <https://doi.org/10.47134/emergent.v3i1.42>
6. Ibadullaeva, Zarifa, va Nabi Jumaboev. (2025). Uzbek National Art and Its Schools. Журнал академических исследований нового Узбекистана, 2(2), 127–130.
7. Bolbekovich, N. B. (2024). Structure of Professional Competence Development of Future Fine Art Teachers: Integration of Technology, Method and Competence. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 5(3), 12. <https://doi.org/10.47134/emergent.v3i1.42>
8. Bolbekovich, Nusharov B. (2023, 28 May). The Role and Significance of Fine Art in Preparing Future Fine Art Teachers for Independent or Creative Activity. World Bulletin of Social Sciences, 22, 235–239.
9. Babadjanov, A. (2025). The Role of Physiognomics in Enhancing Students' Skills in Portrait Drawing. International Journal of Artificial Intelligence, 1(5), 747–754. <https://inlibrary.uz/index.php/ijai/article/view/115441>
10. Khojamkulov, R. (2024). The Importance of Developing Design Competences of Future Engineers Using Computer Graphics. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences, 4(5). <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I5Y2024N57>
11. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. (2025). Development of Creative Competencies as the Foundation of Professional Growth for Visual Arts Teachers. Zenodo.
12. Pardaboevich, Jumaboyev Nabi. (2025). The Application of Eastern Philosophical Aesthetic Concepts in Artistic Education and Their Interpretation in Pedagogical Research. Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari, 14(01), 218–222.
13. Khudayberdievich, B. A. (2024). The Role of Physiognomics in Teaching Students to Draw Portraits. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 5(3), 12. <https://doi.org/10.47134/emergent.v3i1.38>
14. Имомов Ф. (2025). Chizmachilik fanining o'quvchilarning shaxsiy rivojiga ta'siri. Свет науки, № 10(45).
15. Berikbaev, A. (2021, April). Teaching Profession and Skills: Ways to Be a Teacher. Archive of Conferences, 23(1), 142–144.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.